



Shuxratbekova Zaxrooyim Xurshidbek qizi

O`zbekiston davlat Jahon tillari universiteti.

Xorijiy til va adabiyot 3-ingliz fakulteti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Paxtakor-79 jamoasi xotirasiga atalgan Aleksandr Arkadyevich Faynbergning “ Ularning to`p maydoni osmonda” deb nomlangan she`rining tahlili hamda ushbu jamoa bilan sodir bo`lgan fojea hodisalarini o`zida jamlaydi.

**Kalit So`zlar:** afsonaviy jamoa,futbol maydoni, fojea, aviahalokat, Faynberg, imkoniyat, madaniyat,o`zbek futboli iftixori.

Jamoa tarixi.

“Paxtakor” futbol klubi 1956-yilda Toshkentda tashkil topgan va tez fursatlarda Markaziy Osiyoning yetakchi futbol jamoalaridan biriga aylangan. 1960- yillarda ushbu jamoa SSSR oliy ligasiga ko`tarilib eng kuchli jamoa sifatida muntazam kuchli jamoalar bilan raqobatlashib o`z mahoratini ko`rsatib kelgan. 1970-yillar ohiriga kelib, jamoa o`z faoliyatida yangi davrni boshlagan edi. Jamoa tarkibiga yosh futbolchilarni jalb qilinishi hamda tajribali murabbiylar jamoaga murabbiylik qilinishi esa ushbu jamoaning kelajakda chempionlik uchun kurashishi mumkin ekanligini aytayotgan edi.”Paxtakor-79”jamoasi o`zbek futboli tarixida eng yorqin jamoalardan biri sifatida tanilib o`z tarkibini 1978-1979- yillarda shakllantirgan. Jamoa o`sha davrda kuchli, iqtidorli va yosh futbolchilardan tashkil topib o`z jamoasini kuchaytirib 1979-yilgi mavsumga katta re`ja va maqsadlar bilan kirib kelgan edi. Klub rahbariyati va murabbiylar shtabi jamoani SSSR chempionatining ilg`or jamoalaridan biriga aylantirishni rejalashtirgan edi.1979-yillarda jamoaning asosiy tarkibida quyidagi yulduz futbolchilardan tashkil topgan edi;Mixail Ann,Vladimir Fyodorov, Sergey Pokatilov,Sirojiddin Bozorov, Konstantin Bokanov aynan shu tajribali tarkib uyg`unlashgani sababli hujumkor futbol namoyish etishgan. Hamda jamoaning asosiy kuchi tarkibining kombinatsion tezkorligida, texnik jihatidan kuchli futbolchilarga ega ekanligida edi.Hujumkor va zamonaviy futbol falsafasiga asoslangan o`yin uslubiga ega jamoa o`z raqiblarini hayratga solar,murabbiylar tomonidan yaratilgan har bir o`yinchining jismonan hamda taktik jihatidan har bir o`yinchi o`z vazifasini yaxshi bajaradigan tizim o`ylab topilgani ham jamoaning salohiyatini namoyish qilayotgan edi.1979- yilga kelib esa jamoaSSSR oliy ligasida yaxshi natijalarni ko`rsatib katta rejalarini o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan edi.Ammo 1979-yil 11 avgust sanasi nafaqat ushbu jamoa, balki butun o`zbek futbol jamoatchiligi uchun qora harflar bilan belgilanib qo`ygan edi.Dneprodzersink osmonida sodir bo`lgan aviahalokat butun futbol ixlosmandlari va O`zbekiston madaniy hayotiga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

,jumladan, adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatib barchaning qalbidan qora harflar bilan joy oldi.

1979-yil Alesandr Faynberg ushbu jamoa a'zolarining fojiali aviahalokati munosabati bilan "Ularning to'p maydoni osmonda" nomli she'rini yozgan. 1999-yil "Paxtakor" futbol jamoasining fojiali aviahalokatdagi o'limining 12 yilligi munosabati bilan uning ssenariysi asosida "Ularning to'p maydoni osmonda" nomli film suratga olingan. Ushbu filmdagi qo'shiq matni 1979-yil yozilgan Aleksandr Faynberg qalamiga mansub she'r asosida ijro etilgan. Ushbu she'r va uning tahlili bilan quyidagi satrlar orqali tanishishingiz mumkin:

Chimzorda o'ynaydi, o'ynaydi shamol,
To'p uchar, to'p uchar bamisli hayol.
Naqadar zo'r zarba darboza tomon
Hayotni gol bilan yutadi futbol.
To'p titrar guvillar seldek olomon,
Yoshgina hujumchi yugurar shodon.
Uning uchun ochiqdir endi sharq-u g'arb.
Ochiqdir janub-u shimol begumon,
Agarda bilmasang oldda nelar bor
Ishongin, noumid bo'lmagin zinhor .
Shunchaki Minskga uchar samolyot,
Sen uni kuzatib qo'ygin intizor.
Oramizda kim u asli chempion?
Balki, balki men u qismatga ayon.
Parvoz maydoniga intiq kuzatib.
Hayrlashib qolar-a pastda stadion.
Biz uchdik, biz uchdik ko'm ko'k osmonda,
Muzaffar bo'lgaymiz o'zga maydonda
Kim avval, kim keyin tug'ildik, ammo
Chempion bo'lgaymiz birlashgan onda
Qanotlar ostida baland harorat
Bu o'yin zo'r bo'lar ko'rsat mahorat
Jarima maydonin kezib chap yondan.
To'pni o'ng qanotdan tepib havolat
Xudo sinar ekan bandaning sabrin,
Maysazorda shamol yig'laydi hamon.
Hamon tunlar ko'z yosh to'karsan giryon.
Qayg'urma biz hamon o'ynaymiz futbol.
Faqat moviy osmon bizning stadion.
Chimzorda o'ynaydi o'ynaydi shamol.
To'p uchar, to'p uchar bamisli hayol.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Naqadar zo`r zarba darboza tomon

Hayotni go`l bilan yutadi futbol.

She`rning tahlili: ushbu Aleksandr Arkadyevich Faynbergning she'ri futbol mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda yosh futbolchining g'alabaga bo'lgan intilishi va sporting hayotdagi o'rniga urg'u berilgan. She'rning asosiy mavzusi - futbol va uning hayotiga bo'lgan ramziy bog'lanishi ta'sirlangan. Muallif futbol o'yinini hayotiga qiyoslab, undagi harakat, shiddat va muvafaqqiyat ,g'alabaga bo'lgan intilishi yoritilib bergan. Futbol nafaqat oddiy bir o'yin balki, insonning hayotga bo'lgan umidi, intilishi, orzu-havaslari aks ettirilgan. Shoir o'z she'rida: To'p uchar, to'p uchar bamisli hayoldeya tashbeh badiiy usulidan foydalangan holda to'pni insonning orzulariga o'zshatgan holda futbolni orzu sari yo'l ekanligi haqida yozmoqda. "Hayotni go'l bilan yutadi futbol"-bu misrada metafora qo'llangan holda hayotdagi g'alabani go'l urishdek yoritib bergan va inson hayotda yutuqlarga erishishi mumkin ekanligini aytib o'tgan.

"To'r titrar guvillar seldek olomon" -bu yerda stadiondagi tomoshabinlarning olqishlari, qichqiriqlari jonli ravishda tasvirlangan. " Ochiqdir janubu shimol begumon" deya parallelizm usulidan futbolchining oldida ochilgan keng eshiklar hamda yaratilgan imkoniyat tasvirlangan.

She'r faqat futbol haqida emas, balki insonning orzu va intilishlari haqida ham ta'kidlab o'tib ketgan. Yish hujumchining harakati, mehnati va g'alabaga bo'lgan intilishini timsoli etgan. Muallif orzular oldida cheklivlar yo'qligini, hech qachon noumid bo'lmaslik kerak ekanligini ta'kidlaydi. "Ishongin, noumid bo'lmagin zinhor " deya ,agar insonda ishonch hamda umid bo'lsa barcha to'siqlarni yengga olishi va albatta g'alabaga yetishishini tasvirlaydi.

Aleksandr Faynberg " Paxtakor " -jamoasi bilan yuz bergan aviahalokatdan ta'sirlangan holda ushbu jamoaning "Minsk"ga uchayotgan samolyotni kuzatilishi va ushbu voqeani tasvirlangan. Muallif futbol maydonini hayotga bog'lab, chempionlikni nasib etishini esa taqdirga bog'laydi.

Xulosa: ushbu she'r nafaqat futbol davrasiga balki, undan tashqari hayotning o'zi haqida falsafaviy chuqur o'yga chorlaydi. U inson taqdirini, chempionlik, orzular va ajralish haqida mulohaza qilishga undaydi. Muallif taqdirni noma'lum ekanligini, aniq emasligini, uni oldindan hech kimsan bilmasligini har Kim o'z yo'lolini o'zi topishi kerakligini ta'kidlaydi. "Paxtakor-79" jamoasi xotirasi va qahraminlarcha qozongan g'alabasi har kimning yuragida mangu yoziladi va ushbu misralarni Faynberni ushbu she'ri orqali yetkazish horiraning yaqqol namunasidir





FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. <https://championat.asia/oz/m/news/paxtakor-79ni-xotirlab-vladimir-fyodorov>
2. <https://daryo.uz/2023/08/11/ularning-eng-kichigi-19-yoshda-edi-44-yil-ilgari-halokatga-uchragan-paxtakor-79ni-xotirlab>
3. <https://m.stadion.uz/uz/news/detail/206357>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/tag/paxtakor/>
5. <https://www.spot.uz/oz/tag/paxtakor/>
6. Ózbekistin milliy ensiklopediasi 9-tom

